

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, O.Raxmatov

Raqamli ta'lif muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi..... 8

B.Shermuhammadov, D.Namozova

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli..... 13

B.Shermuhammadov, B.Baratov

Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari 18

D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarmanova

Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish..... 22

B.Qurbanova

Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'lifda ta'lif jarayonini samarali tashkil etish 25

I.Siddiqov

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari 29

A.Xo'jayev

Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 33

X.Qodirov

Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari 38

B.Baydjanov

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi 42

A.Turaxanov

Chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 49

R.Madalyev

Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati..... 52

X.Yulbarsova

Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida 56

A.Soyibnazarov

Ta'lifda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lif..... 62

S.Kamchiyev

Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati..... 67

N.Mamatqulova

Ta'lifda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari 71

S.Sulaymanova

Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari..... 75

M.Aripjanova

Professional ta'lif o'quvchilarining kasbiy kompetentsiyalariga talablar tahlili 80

D.Yo'idosheva

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari 83

N.Dusimbetova

Bo'lajak jurnalislarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati..... 88

T.Turgunbayev

Harbiy ta'lifda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari 92

N.Yuldasheva

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar 95

BOLALAR POETIK MATNLARINI PEDAGOGIK DIZAYN VOSITASIDA O'RGATISH**CHILDREN'S POETIC MIRROR THROUGH PEDAGOGICAL LIBRARY****ДЕТСКОЕ ПОЭТИЧЕСКОЕ ЗЕРКАЛО ЧЕРЕЗ ПЕДАГОГИЧЕСКУЮ БИБЛИОТЕКУ**

**Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna¹, Bekmagambetova Roza Karpikovna²,
Matkarimova Shaxnoza Maxamadjonova³**

¹**Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna**

²**Bekmagambetova Roza Karpikovna**

³**Matkarimova Shaxnoza Maxamadjonova**

– Farg'ona davlat universiteti, dotsenti

– Abay nomidagi QazMPU professori, pedagogika
fanlari doktori

– Farg'ona davlat universiteti, magistri

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar poetik matnlarining xususiyatlari, bolalar xotirasida uzoq vaqt saqlanishi uchun mnemotexnikadan foydalanish jihatlari misollar yordamida tahlil etildi. Pedagogik loyihalash, mnemotexnika usullari pedagogik dizaynning tarkibiy qismi ekanligi, ular zamonaviy metodlar, xususan, fanga kirib kelgan yangi tarmoqlar mahsuli sifatida tadqiq etildi.

Аннотация

В данной статье на примерах проанализированы особенности детских поэтических текстов, аспекты использования мнемотехники для длительного удержания в детской памяти. Педагогический дизайн, мнемонические методы являются составной частью педагогического дизайна, они исследуются как продукт современных методов, в частности, новых направлений, вошедших в науку.

Abstract

In this article, the characteristics of children's poetic texts, aspects of using mnemonics for long-term retention in children's memory were analyzed using examples. Pedagogical design, mnemonic methods are a component of pedagogical design, they are researched as a product of modern methods, in particular, new branches that have entered the science.

Kalit so'zlar: poetik matn, pedagogik dizayn, mnemotexnik yo'lakcha, badiiy tafakkur, ekspressiv-emotsionallik.

Ключевые слова: поэтический текст, педагогический дизайн, мнемоническая дорожка, художественное мышление, экспрессивно-эмоциональность.

Key words: poetic text, pedagogical design, mnemonic corridor, artistic thinking, expressive-emotionality

KIRISH

Bugungi zamonaviy pedagogika kattalarning bolalarga bo'lgan munosabatini sezilarli darajada o'zgartirdi. Natijada bolaning rivojlanish darajasi butun ta'limgiz tizimida tarbiyachi ishining sifat ko'rsatkichiga aylandi. Kattalar nafaqat maktabgacha yoshdagagi bolaning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor berishlari va uni ijtimoiy hayotga moslashtirishi, balki yechimlarini birgalikda izlash orqali o'qitishi, bolaga olamni idrok etishning me'yorlarini mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyatini berishlari zarur.

Pedagogik dizayn – bu hamkorlikni ta'minlashning noyob vositasi, bolalar va kattalar birgalikda ijod qilishi, ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish usuli hisoblanadi. Ayni pedagogik dizaynda bola hayotning turli sohalariga oid yangi g'oyalar va tushunchalarni o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lib boradi. Masala yoki muammo oldida esankiramay, uning yechimini topishga turlicha yondashish pedagogik dizaynning asosiy maqsadidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogik dizayn atamasi 1960- yilda Robert Mils Ganje (Principles of Instructional Design) va Robert Gleyzer (Psychology and Instructional Technology) tomonidan fanga kiritildi[1]. Ensiklopedik lug'atda dizayn (lotincha projectus — oldinga tashlangan) loyihani yaratish jarayoni sifatida izohlanadi, ya'ni prototip, taxmin qilingan yoki mumkin bo'lgan obyektning prototipi, haqiqiy mahsulotda o'ylab topilgan narsadan oldingi holat sifatida izohlanadi. XXI asr ta'limgiz paradigmasiда dizayn madaniyati yangilik sifatida kirib kelmoqda. Ayniqsa maktabgacha ta'limgizda chiroyli ko'rinish, tashqi jozibadorlikka asoslangan dizayn faoliyati universal va sintetik faoliyat sifatida tavsiflanadi[2]. Texnokratik va gumanitar, tadqiqot va bashoratli, axborot-ta'limgiz va ijtimoiy-transformatsion

PEDAGOGIKA


tamoyillar, pedagogik dizayn tamoyillari sifatida voqelangan. Adabiyotlarda pedagogik dizayn quyidagicha izohlanadi:

- amaliyotga yo'naltirilgan faoliyat, uning maqsadi amaliyotda mavjud bo'Imagan yangi ta'limgiz tizimlari va pedagogik faoliyat turlari; — ta'limgiz, ijtimoiy-pedagogik harakat, ta'limgiz tizimlari, pedagogik texnologiyalar va faoliyatdagagi innovatsion g'oyalarning rasmiylashtirilgan majmualari sifatida tushuniladigan ta'limgiz loyihamini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan faoliyat sanaladi.

Pedagogik dizayn vositasida o'zbek bolalariga xos poetik matnlarni badiiy diskursda ularning dunyoqarashiga mos tushuncha va tasavvurlarning gnostik hissiyotga asoslanishi, turli yosh davrlarida xronologik yosh ko'rsatkichidan tashqari bolaning ichki olamida, ruhiyatida yuz beradigan kechimimlar bolalarda refleksiya faoliyatini yuzaga chiqarishi, matndagi intertekstuallik natijasida allyuziv nomlarning voqelanishi tadqiqatlarda o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik dizayn vositasida poetik matnlarni matabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatish samarali natija beradi. Chunki pedagogik dizayn asosida bolalarga poetik matnlarni o'rgatish, ularga she'rlarni yod oldirish bolalarning xotirasini mustahkamlash bilan birga badiiy adabiyotga qiziqishni uyg'otadi. Masalan, A.Obidjonning "G'alati maktublar" turkumidagi she'rlarini mnemotexnik yo'lakcha orqali she'rning nima haqida ekanligini tushuntirish, nomini yod oldirish yaxshi natija beradi. Buning uchun bolalarga quyidagi suratlarni jadvalga solib, suratlar ketma-ketlikda izohlanadi va "Varrakning samolyotga yozgan xati" deb o'qib beriladi.



Bolalar mnemoyo'lakchadagi suratlarni ko'rib bo'lgach, tarbiyachi she'rni ifodali tarzda yoddan aytib beradi:

Ishlar qalay, qarindosh,
Bilvoldingmi urushni?
Uchgan chog'da o'ylab yur
Yerga omon tushishni.
Eng muhimi, havoda –
Bir xil ushla posangi...
Kelib mendan so'rayver
Tushunmagan narsangni.

Mazkur mnemotexnik yo'lakcha orqali bolalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, ularning obrazli idroki va tafakkurini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, matabgacha ta'limgiz yoshidagi bolalar uchun yaratilgan poetik matnlarda ekspressiv-emotionsionallikni vujudga keltirish uchun alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarning qavatlanishi); nasriy matnda so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish va boshqa shu kabi fonetik usullardan foydalilanigan. Aynan pedagogik dizayn orqali she'rlarning lingvistik xususiyatlarini yanada tushunarli tarzda ifodalash mumkin. Mnemotexnika, pedagogik loyihalash usullari pedagogik dizayning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, quyidagi she'riy satrlarda undoshlarning qavatlanishi uslubiy-estetik, ma'noni kuchaytirish vazifasidan tashqari, bolalarga xos qiziquvchanlik, tabiiy soddalikni vujudga keltiradi.

Ruschasiga "olcha" nima?	– Vish-sh-nya – deya javob qildi.
Deb so'radi Zag'izg'on.	O'ylab turib Suvilon. (A.Obidjon "CHet tili" she'ri)

Hayvonlarning suhbat-dialogida ruscha so'zlar fonetik jihatdan ajratilib, "Vish-sh-nya" so'zidagi "sh" tovushini qavatlantirib, tabiiy ovoz chiqaradigan ilon tanlanganligi bolalarning yanada

hayratlanishiga, taajjublanishiga olib keladi[3]. Quyidagi “Kelinsalom” marosim qo’shig‘i uslubida yaratilgan A.Obidjonning “Salom” she’rida so‘zning shakl va ma’no munosabatini ifodalagan leksik birliklar o’zaro uyg‘un tarzda ifodalangan:

*Xumbosh hamda xirqiroq, oziq tishi oshpichoq,
Ochko’zligi sal chatoq, xasis Qobonga salom.
Bulbul kabi izillar, tog'-toshlarda g'izillar,
Yirtqichlardan bezillar, do'stim Jayronga salom.*

Yuqoridagi misolda ochko’z, xasis hamda izillar, g'izillar so‘zlariga badiiy-estetik vazifa yuklangan.

*Bebahodir po'stini, poylar hatto do'stini,
Sipo demang siz uni, ayyor Qoplonga salom.*

Misolda sipo va ayyor kontekstual sinonimi qoplonning xatti-harakatiga ishora qilgan.

*Tyny kyn er qazigan, zaxda yotib ozigan,
Ko'p tipishib, oz egan go'cxo'r Yumponga calom.*

Berilgan misolda fonetik tarkibi boshqa bo’lsa-da, talaffuzda bir-biriga yaqin bo’lgan *ozigan* va *oz yegan* birliklari obrazga xos effektni yaratish uchun xizmat qilgan. Matndagi bunday xususiyatlar bolalar hissiyotiga ta’sir ko’rsatishi, ularda xush kayfiyat va jo’shqinlikni hosil qilishi tarbiyachi nutqiga bevosita bog’liqdir. Shuningdek, mактабгача та’limda pedagogik dizaynni qo’llash jarayonida poetik matnlarning lingvistik xususiyatlariga e’tibor qaratish jarayonni yanada talabga javob berishini ta’minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha ta’limda pedagogik dizayndan foydalanish bolalarning obrazli tafakkuri, idroki va xotirasini mustahkamlashga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning bilish jarayoniga yo’naltirilgan pedagogik dizayn faoliyati, amaliyotda mavjud bo’limgan yangi ta’lim tizimlari va pedagogik faoliyat turlarini ishlab chiqish zaruriyatini uyg’otadi.

Maktabgacha ta’lim esa ijtimoiy-pedagogik harakat, ta’lim tizimlari, pedagogik texnologiyalar va faoliyatdagи innovatsion g’oyalarning rasmiylashtirilgan majmualari sifatida tushuniladigan ta’lim loyihibalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan faoliyat pedagogik dizaynning asosi bo’lib, uning istiqbolini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. <https://www.ispring.ru/elearning-insights/chto-takoe-pedagogicheskiy-dizayn> 2.Yuldasheva D.M.Anthropotsentrisk Approach To Shildren’ S Speesh Study. Session 2: Linguistiss Theory,Applied Linguistiss. Sollestion Of Materials Of The International Online Sonferense.Www.Researsh-Support-Senter.Som 2020.92-95
2. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speesh Development Of Presshol Shildren. Epra Internashinal Jurnal Of Multidissiplinary Researsh(Ijmr). Impast Fastor: 7.6.11.November.
3. Д.М.Юлдашева, Д Аскарова, М Зоҳидова. Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2 (2), 926-931.
4. Ю.Д.Махамадалиевна. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. Ulrich’s Periodicals Directory.
5. ДМ Юлдашева. Синтаксик тақорларнинг бадиий-эстетик имкониятлари Международный журнал ИСКУССТВО СЛОВА. 2019.5-сон.
6. Y.D. Maxamadalievna. Use of presidential names in uzbek children's texts. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70.-
7. Д.М. Юлдашева. Болалар фольклорида креол (ўйғун) матннинг ифодаланиши. Молодой ученый, 607-609.